O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

**"TASDIQLAYMAN"**
"AKT sohasida iqtisodiyot va menejment"
fakulteti dekani
_____________M.S.Saitkamolov
"___" ____________2025-yil

# "SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH" FANI BO'YICHA SILLABUS

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 300 000 | – | Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| | 600 000 | – | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari |
| **Ta'lim sohasi:** | 310 000 | – | Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar |
| | 610 000 | – | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari |
| **Ta'lim yo'nalishlari:** | 60310500 | – | Raqamli iqtisodiyot (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) |
| | 60611200 | – | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iqtisodiyot va menejment |

**Toshkent – 2025**

| | |
|---|---|
| **Fan nomi:** | **Soliq va soliqqa tortish** |
| **Fan turi:** | Tanlov fan |
| **Fan kodi:** | |
| **Bosqich:** | 3 |
| **Semestr:** | 6 |
| **Ta'lim shakli:** | Kunduzgi |
| **Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:** | 180 |
| Ma'ruza | 42 |
| Amaliy mashg'ulotlar | 30 |
| Laboratoriya ishi | - |
| Seminar | - |
| Mustaqil ta'lim | 108 |
| **Sinov birligi miqdori:** | 6 |
| **Baholash shakli:** | Imtihon yozma |
| **Fan tili:** | O'zbek |

| **Fan maqsadi (FM)** | |
|---|---|
| **FM1** | Soliq va soliqqa tortish fani talabalarda soliqlar va soliq tizimining nazariy-uslubiy asoslari, soliq siyosatining tashkiliy-huquqiy tamoyillari, soliq turlari va ularning iqtisodiyotga ta'siri, soliq ma'murchiligi mexanizmlari, soliq yuki va uning taqsimoti, soliqqa tortishning afzallik va kamchiliklari, soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularning oldini olish yo'llari, xalqaro soliqqa tortish tizimlari, ikki tomonlama soliq shartnomalari, elektron soliq tizimida xavfsizlik va shaffoflikni ta'minlash mexanizmlari, hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq islohotlari va ularning dolzarbligi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi. |

| **Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich talablar** |
|---|
| Iqtisodiyot asoslari, Statistika, Mikroiqtisodiyot, Makroiqtisodiyot, Korxona iqtisodiyoti, Axborotlarni izlash va ajratib olish metodologiyasi fanlari bo'yicha dastlabki bilimlarga ega bo'lishi kerak. |

| **Ta'lim natijalari (TN)** | |
|---|---|
| **TN1** | Soliqlar va soliq tizimining mohiyati, zarurligi, belgilar va funksiyasi haqida, soliq nazariyalarining rivojlanish bosqichlari haqida, davlat soliq xizmati organlarini boshqarish asoslari haqida, soliqqa tortishning iqtisodiy mohiyati haqida, soliq tizimini tashkil etish haqida, iqtisodiyot sub'ektlarini soliqqa tortish xususiyatlari haqida, soliqqa tortish sub'ektlarining o'zaro hamkorligi haqida, soliq amaliyoti haqida, soliq tizimining huquqiy asoslari haqida, soliqqa tortish tamoyillari haqida tasavvurga ega bo'lishi; |
| **TN2** | Soliq tizimini takomillashtirish haqida, rivojlangan mamlakatlarda soliqqa tortishni tashkil etish xususiyatlari haqida, soliqlarni rejalashtirish haqida, soliq menejmenti haqida, O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi asoslari haqida, soliq to'lovchilarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi haqida, soliq stavkalarini tabaqalashtirish haqida, soliq imtiyozlari haqida, soliqlarni hisoblash usullari haqida bilishi va ulardan foydalana olishi ; |

| | |
|---|---|
| TN3 | Soliq sohasida quyidagi asosiy ko'nikmalarga ega bo'lish lozim: soliq yukini aniqlash va baholash, soliq hisob-kitoblarini yuritish, iqtisodiyotning turli subyektlarini soliqqa tortish xususiyatlarini aniqlash, egri va to'g'ri soliqlarning o'ziga xos tomonlarini tushunish, soliq tushumlarini iqtisodiy tahlil qilish, soliq xizmati funksiyalarini bajarish, budjet oldidagi majburiyatlarni ta'minlash, soliq huquqiy munosabatlarini tartibga solish, soliqlar va yig'imlarning yig'iluvchanligini ta'minlash, soliqqa tortish ob'ektlarini va mexanizmini aniqlash, soliq tekshiruvlari dalolatnomalarini rasmiylashtirish, soliq da'volarini ko'rib chiqish, soliqlar orqali iqtisodiy tartibga solishni tashkil etish, hisobotlar va tushumlarni tahlil qilish, ularni prognozlash, normativ-huquqiy hujjatlardan samarali foydalanish, soliqqa tortish samaradorligini oshirish uchun ichki zaxiralarni aniqlash va soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish. |

| | **Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)** | **Soat** |
|---|---|---|
| M1 | "Soliq va soliqqa tortish" faniga kirish, soliq kodeksi | 4 |
| M2 | Soliq tizimi, soliq majburiyatlarini amalga oshirish madaniyati | 4 |
| M3 | Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va imtiyozlar | 2 |
| M4 | Yalpi daromad va uning soliqqa tortilishi | 4 |
| M5 | Korxona va unda soliq chegirmalari | 4 |
| M6 | Soliq ajratmalarini yuritish hamda moliyaviy yo'qotishlarni tahlil qilish | 4 |
| M7 | Asosiy aylanma vositalarning eskirishi, amortizatsiyasi hamda yaroqsizligini hisobga olish | 4 |
| M8 | Mulk operatsiyalari; daromad va zarar | 4 |
| M9 | Soliqqa tortilmaydigan mulk operatsiyalari | 4 |
| M10 | Korxonalararo hamkorlik faoliyati va uning soliqqa tortilishi | 4 |
| M11 | Korxonalararo hamkorlik faoliyati va uning xalqaro standartlarga rioya qilishi | 4 |
| **Jami:** | | **42** |
| | **Mashg'ulotlar shakli: amaliyot mashg'ulot (A)** | **Soat** |
| A1 | "Soliq va soliqqa tortish" faniga kirish, soliq kodeksi | 4 |
| A2 | Soliq tizimi, soliq majburiyatlarini amalga oshirish madaniyati | 4 |
| A3 | Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va imtiyozlar | 2 |
| A4 | Yalpi daromad va uning soliqqa tortilishi | 2 |
| A5 | Korxona va unda soliq chegirmalari | 2 |
| A6 | Soliq ajratmalarini yuritish hamda moliyaviy yo'qotishlarni tahlil qilish | 4 |
| A7 | Asosiy aylanma vositalarning eskirishi, amortizatsiyasi hamda yaroqsizligini hisobga olish | 2 |
| A8 | Mulk operatsiyalari; daromad va zarar | 4 |
| A9 | Soliqqa tortilmaydigan mulk operatsiyalari | 2 |
| A10 | Korxonalararo hamkorlik faoliyati va uning soliqqa tortilishi | 2 |
| A11 | Korxonalararo hamkorlik faoliyati va uning xalqaro standartlarga rioya qilishi | 2 |
| | **Jami:** | **30** |



| № | Mustaqil ta'lim (MT) | soat |
|---|---|---|
| MT1 | Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish | 20 |
| MT2 | Testga tayyorgarlik ko'rish | 20 |
| MT3 | Mavzu bo'yicha taqdimot tayyorlash | 20 |
| MT4 | O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar. | 30 |
| MT5 | Masala va misollar ishlash | 18 |
| Jami: | | 108 |

## Ta'lim strategiyasi

"Soliq va soliqqa tortish" kursini o'qitish ta'limning kredit tizimi asosida ma'ruza, amaliy mashg'ulotlari, videoma'ruzalar, taqdimotlar, hamda mavzu bo'yicha vazifalar va mustaqil topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Ma'ruza, amaliy ishlariga oid o'quv materiallarida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlar beriladi, amaliy ishlarini bajarish va natijalarni hisoblash tartibi tushuntiriladi. Kurs bo'yicha qo'yilgan o'quv materiallari talabalar tomonidan mustaqil o'rganiladi, testlar, amaliy ishlari talabalar tomonidan individual tarzda bajariladi.

Talabalar quyidagi materiallardan foydalanish imkoniga egadirlar:

- Elektron shakldagi ma'ruza matnlari;
- Har bir mavzuga doir taqdimot materiallari;
- Amaliyot mashg'ulotlariga doir uslubiy ko'rsatmalar;
- Har bir dars mavzusi yuzasidan nazorat savollari;
- Elektron shakldagi darsliklar va qo'llanmalar.

Ma'ruza davomida, talabaga taqdimot materiallari orqali mavzu yuzasidan kerakli bo'lgan konsepsiyalar yetkazib beriladi. Talabalarga mavzuni yanada mustahkamlashlari uchun prezentasiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa o'quv-uslubiy mahsulotlardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi. Talabalarning mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish maqsadida, har bir mavzudan so'ng nazorat savollari beriladi.

Amaliyot mashg'ulotlarda har bir mavzu bo'yicha masalalarni yechish bo'yicha materiallar, prezentasiyalar, ko'rsatmalar talabalarga taqdim etiladi, shuningdek, mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish maqsadida topshiriqlar beriladi.

Ma'ruza va amaliyot mashg'ulotlarining barcha mavzularini to'la o'zlashtirgan talabalarga yakuniy nazoratda ishtirok etishga ruxsat etiladi. Talaba semestr oxirida universitetga kelib, yakuniy nazorat topshiradi.

| Reyting baholash turlari | % | O'tkazish vaqti |
|---|---|---|
| **Joriy baholash:** | 20 | |
| Amaliy mashg'ulotlarda faolligi, savollarga to'g'ri javob berganligi, amaliy topshiriqlarni bajarganligi uchun:<br>1-amaliy ish uchun: 2%<br>2-amaliy ish uchun: 3%<br>3-amaliy ish uchun: 3% | 20 | Semestr davomida |

| | | |
|---|---|---|
| 4-amaliy ish uchun: 2%<br>5-amaliy ish uchun: 2%<br>6-amaliy ish uchun: 2%<br>7-amaliy ish uchun: 2%<br>8-amaliy ish uchun: 2%<br>9-amaliy ish uchun: 2% | | |
| **Oraliq baholash:** | **30** | |
| Oraliq nazorat yozma ish (ma'ruzachi o'qituvchi tomonidan qabul qilinadi). | 15 | 14-hafta |
| Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi:<br>- referat tayyorlash: 5 %<br>- taqdimot tayyorlash va himoya qilish: 10 % | 15 | Semestr davomida |
| **Yakuniy nazorat** | **50** | 16-hafta |
| **JAMI:** | **100** | |


| | |
|---|---|
| **Asosiy adabiyotlar** | |
| 1. | To'rayev Sh., Bozorov R. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: "Fan", 2023. - 248 b. |
| 2. | Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mamlakatlar soliq tizimi. Darslik. –T.: "Fan va texnologiya", 2011. -507 b. |
| 3. | Pistone P. et al. Fundamentals of taxation: Introduction to tax policy. tax law and tax administration //Tax Law and Tax Administration (July 8, 2019). Fundamentals of Taxation. – 2019. |
| 4. | William D. Popkin. Introduction to taxation. Sixth edition. Copyright © 2013 Carolina Academic Press, 52 p |
| **Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar** | |
| 1. | 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvargagi PF-60-son Farmoni |
| 2. | O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: "Adolat", 2018 |
| 3. | Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T.: O'zbekistan, 2016. – 56 b. |
| 4. | Черник Д. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: "Юнити-Дана", 2010 |

| Elektron manbalar: |
|---|
| www.sbu.uz |
| www.gov.uz |
| www.lex.uz |
| www.mf.uz |


Mazkur sillabus Universitet Kengashining 2025-yil 25-09 dagi 8/19(79/751) son bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Mazkur sillabus "AKT sohasida iqtisodiyot va menejment" fakultetining 2025-yil 28 09 10 -sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan.

**Soliq va soliqqa tortish**

Mazkur Sillabus "AKT sohasida iqtisodiyot" kafedrasining 2025-yil 23.09 dagi 9-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

**O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i** **A.K. Ergashev**

**Kafedra mudiri** **N.A. Iminova**

**Tuzuvchi(lar)** **S.S. Ibadullayev**